

TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR TOMONIDAN SOLIQ MILLIY BAZASI YEMIRLISHINING OLDINI OLISH USULLARI

G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

shohruhjohn2000@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur materialda Transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan soliqdan qochish borasidagi mexanizmlarning milliy soliq bazasi yemirilishida tutgan o'rnini, shuningdek, buning milliy iqtisodiyotlarga yetkazadigan salbiy ta'siri borasida tahliliy fikrlar keltirilgan. Qolaversa, Bunday korporatsiyalar nima sababdan bunday mexanizmdan foydalanishga harakat qilishlari o'rganilib, bunga qarshi kurashda mamlakatlar qanday usullardan foydalanishi kerakligi borasidagi takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: transmilliy korporatsiya, soliq, soliqdan qochish mexanizmi, soliq yuki.

Kirish. Pul bor joyda soliq bor. Soliq bilan bog'liq munosabatlar esa o'rganilishga, tahlil etilishga muhtoj. Buning bir qancha sabablari mavjud. Chunki, soliq yuki soliq to'lovchilarga adolatli taqsimlanishi, katta korporatsiyalar esa soliqdan qochuvchi turli xil mexanizmlardan foydalanishiga hojat qolmasligi kerak. Bu soliqlarning to'liq byudjetga tushishini, yig'ilgan byudjet mamlakatning infratuzilmasiga sarflanishini, aholi ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydi. Ammo shunda ham soliqdan qochishga harakat qiluvchilar topiladi. Qonunchilik talabga javob beradigan, ehtimoliy bo'shliqlarni ham yopa oladigan, yan'i soliq to'lovchilarning soliqni chetlab o'tishiga imkon qoldirmaydigan bo'lsa, davlat daromadlarining yo'qolish xavfi yanada kamayadi.

Germaniyaning "Temir kansleri" Otto fon Bismark: "Qonun o'rgimchak to'riga o'xshaydi, uni yirik hasharotlar yorib o'tib ketadi, unga ilinadiganlar esa kichik pashshalardir" – degan edi o'z vaqtida. Darhaqiqat, bu jumlar soliq qonunchiligida ham o'z isbotini topishini kuzatishimiz mumkin. Aynan shunday holatlar bo'lmasligi uchun ham soliq bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish mamlakatlarning zaruriy ehtiyojidir.

Xorijiy mamalakatlarning soliq qonunchiligini o'rganadigan bo'lsak, shu narsa ko'zga tashlanadiki, yaxshi tartibga solingan soliq qonunchiligi tizimda shaffoflik va hisobdorlik taminlangan qonunchilik hisoblanadi. Agar soliq qonunchiligida shaffoflik va hisobdorlik ta'minlansa, shuningdek, unda barqarorlik va bashorat qilsa bo'ladigan muhit hukm sursa, u mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, korxonalarda soliq tizmining barqarorligi va izchilligi to'g'risida tasavvur bo'lsa, ular iqtisodiyotga sarmoya kiritish va innovatsiyalar olib kirishga, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish imkoniga ega bo'ladi.

Samarali soliq tizimi aholining hukumatga ishinchi mustahkam bo'lishiga sabab bo'ladi. Ular hukumatga o'z-o'zidan bo'ysunadi. Hukumat tomonidan spliq to'lash maqsadida majburlov choralari amalga oshirilishga ehtiyoj bo'lmaydi. Aynan shunday tizimlarning yetishmasligi sababli ko'plab kompaniyalar soliqlardan qochishga harakat qiladi. Transmilliy kompaniyalar esa buny amaliyotlarni bajarishni instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiy jihatdan keng imkoniyatlarga ega ekanligi sababli yaxshi mutaxassislarni jalb qilib, qonunning tirqishlaridan samarali foydalangan holda soliqlardan qocha olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qonunchilik esa davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida o'zaro teng huquq va majburiyatlarni o'rnatishi hamda soliqdan qochuvchilar uchun aylanib o'tish yo'lini qoldirmasligi kerak.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, soliq bilan bog'liq munosabatlar doirasida tadqiqotlarni amalga oshirish hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. Soliq munosabatlarini tartibga solish ham davlat, ham keng jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi mutanosib va samarali soliq tizimini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. U iqtisodiy barqarorlikni, ijtimoiy tenglikni va resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlaydi, mamlakatning umumiy farovonligiga hissa qo'shadi.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda global iqtisodiyotda transmilliy korporatsiyalar tomonidan mamlakatlarning milliy soliq bazalarining yemirilishini oldini olish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Korporatsiyalar tobora kengayib borgani sari ularni soliqqa tortish masalasi ham murakkalashib bormoqda. Chunki, bunda korporatsiyani soliqqa tortish faqatgina faqatgina bir mamlakatning gardaniga tushadigan mas'uliyat emas, balki boshqa mamlakatlar ham transchegaraviy kompaniyalar doirasida xorijiy mamakatlar va boshqa xalqaro tashkilotlar ham qatnashishi lozim bo'lgan faoliyatga aylanmoqda.

Shu sababli borada xalqaro faoliyatni kengaytirish lozim. Xususan, Davlatlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va G20 kabi forumlar orqali o'zaro Transmilliy korporatsiyalarga qarshi amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni kelishib olishlari mumkin. Jumladan OECDning Baza eroziyasi va foydani o'zgartirish (BEPS) loyihasi ko'plab mamlakatlar uchun transmilliy korporatsiyalar tomonidan qo'llaniladigan soliqlardan qochish mexanizmlariga qarshi kurashish uchun muhim instrument bo'lib xizmat qilishi mumkin.[1]

Transmilliy korporatsiyalarga soliqlardan ochish bo'yicha mexanizmlardan foydalanish borasida ofshor zonalar pullarni legallashtirib olishda katta yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga ko'ra, ushbu Kodeks maqsadida soliq solish bo'yicha imtiyozli rejimni taqdim etadigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni oshkor etishni hamda taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar va hududlar ofshor yurisdiksiyalar deb e'tirof etiladi.[2] Transmilliy korporatsiyalar o'zlarining ma'lumotlarini ofshor zonalarda oshkor etilmasligidan kelib chiqib, erkin harakat qiladi. Aslida esa soliq bazasi yemirilishining oldini olish uchun har bir mamlakat transmilliy korporatsiyalarning moliyaviy ma'lumotlarini oshkor qilishi bilan to'langan soliqlarning global taqsimoti haqida mamlakatlar ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa soliqdan qochish bilan bog'liq xavflarni baholashni osonlashtiradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahliliy fikrlarni mumlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, Transmilliy korporatsiyalar faoliyati natijasida milliy soliq bazasi yemirilishining oldini olish milliy qonunchilik bilan birgalikda soliq tizimi borasida xalqaro hamkorlik bo'yicha ham uyg'unlashgan yuqorida nazarda tutilgan bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

REFERENCES:

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). (2021). Baza eroziyasi va foydaning o'zgarishi (BEPS).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi <https://lex.uz/docs/-4674902#-4675123>